



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 йил «26» июль

VI-51-128-8-109-K/22

Ангор туман ҳокимлиги

### **Jamoat xavfsizligini ta'minlash natijalari, xususan, tumanda sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar yuzasidan tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarining muhokamasi to'g'risida**

Angor tumanida 2022 yilning 6 oyi davomida jami sodir etilgan jinoyatlar 2021 yilning mos davriga nisbatan 87 tadan 80 taga yoki-8,0 foizga kamaygan bo'lsa, JQ sohasi bo'yicha jami jinoyatlar 60 tadan 50 taga yoki 16,7 foizga kamayishiga erishilgan. Tumanda 6 oy davomida sodir etilgan jami 80 ta jinoyatlar 100 ming aholi soniga nisbatan hisoblaganda 58,2 foizni tashkil etib, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar 55 tani ya'ni 100 ming aholi soniga nisbatan 40 foizni, mahalla hududida sodir etilgan jinoyatlar 36 tani, ya'ni 26,2 foizni tashkil etadi.

O'tgan davr mobaynida hududiy profilaktika inspektorlari tomonidan jami 1570 ta (2021 yilning mos davrida 1665 ta) turli ko'rinishdagi ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib tegishli organlarga yuborilgan. Shundan 1317 tasi (2021 yilning mos davrida 964 ta) bevosita profilaktika inspektorlarining vakolat doirasiga kiruvchi 24 ta modda bo'yicha tuzilgan ma'muriy bayonnomalar hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida tuzilgan ma'muriy bayonnomalar bo'yicha, jami 199604005 so'm (2021 yilning mos davrida 164 million 654 ming so'm yoki 71 foiz) jarimalar belgilangan bo'lib, shundan 115415500 so'm yoki 71 foiz jarimalar davlat hisobiga undirilgan bo'lsa, qolgan 84188505 so'm yoki 39,9 foiz jarimalar (2021 yilning mos davrida 35542014 so'm yoki 62,5 foiz jarimalar so'm) jarimalar undirilmadan qolgan. Qolgan 16219600 so'm pullar O'zbekiston Respublikasi MJtKning 332-moddasi talablari asosida undirilgan.

2022 yilning 6 oyi davomida tuman hududida sodir etilgan jinoyatlarning 7 tasi yoki umumiy jinoyatlarning 8,7 foizini yo'l-transport hodisasi bilan bog'liq jinoyatlar tashkil etib, shundan 5 tasi odam o'limi bilan bog'liq, qolgan 2 tasi esa tan jarohatlari bilan bog'liq jinoyatlar hisoblanadi. Sodir etilgan yo'l transport

hodisalari o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishiga erishilgan.

2022 yilning 6 oyi davomida tuman 761 ta murojaatlar kelib tushgan bo'lib, tegishlilik yuzasidan yuborilganlari 47 ta, sud idoralariga yuborilganlari 172 ta, jinoyat ishi qo'zg'atishdan rad etilgani 573 ta, jinoyat ishi qo'zg'atilgani 23 ta, O'zbekiston Respublikasi JPKning 84-moddasi 1-qismi 6-bandi bilan jinoyat ishi harakatdan tugatilgani 2 ta, boshqa 9 tani tashkil etagan.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash natijalari, xususan, tumanda sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoiy holatlar yuzasidan tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarining axborotini eshitib, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarining Jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash borasida 2022 yilning o'tgan 6 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi yig'ilishida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Ichki ishlar bo'limining jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bekamu-ko'st, o'z vaqtida va sifatli bajarilish uchun katta mas'uliyat va javobgarlikni his etgan holda, tunu-kun xizmat qilib, Prezident va xalqimizning ishonchini oqlash yo'lida olib borgan faoliyati qoniqarli deb hisoblansin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari (Sh.Rajabova) Ichki ishlar bo'limi xodimlari va mahallalardagi oila va xotin qizlar masalalariga mas'ullar bilan hamkorlikda har oyda bir marta o'tgan yilning mos davriga nisbatan jinoyat oshgan hududlarda ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida keng qamrovli profilaktik chora-tadbirlar tashkil etib borsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosariga:

- jazoni o'tash muassasalaridan qaytgan yoki jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan va jinoyat keltirib chiqarish mumkin bo'lgan oilalarni o'rganish, doimiy nazoratga olish, muammolarini tahlil etish uchun tegishli mas'ullarga yetkazishga ko'maklashish va ijrosini nazoratga olish;

- muammoli masalani kechiktirmasdan tegishli mas'ullarga yetkazish va

noxush holatning oldini olish yoki tegishli idoralarni bundan xabardor qilish bo'yicha jonbozlik ko'rsatish borasida xodimlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirsin.

5. Tuman hokimligining matbuot xizmati hamda "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva) jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan targ'ibot-tashviqot ishlari, o'tkazilayotgan uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni o'z vaqtida OAV sahifa va saytlarida yoritib borsin.

6. Ushbu qaror ijrosi nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV